



**ZAMONAVIY ALOQA VOSITALARI VA AXBOROT
TEXNOLOGIYALARINI TURIZMGA TADBIQ ETISH.
TURIZMDA ZAMONAVIY ALOQA VAROITLARI VA
AXBOROT TEXNOLOGIYALARINI QO'LLASH.**

Xasanov Xojimurod To'ychiboy o'g'li

Chirchiq davlat pedagogika universiteti talabasi

Xasanov Xojimurod To'ychiboy o'g'li

Student of Chirchik State Pedagogical University

***Annotatsiya:** Ushbu maqolada turizm sanoatini tashkil etishda o'z o'rniga ega bo'lib ulguragan zamonaviy axborot vositalarini turizmga qo'llanilishi hamda uning ahamiyati haqida so'z yuritilgan. Hamda ko'plabsaytlardan turistik tashkilotlar qanday foydalanayotganlari haqida ma'lumotlar beriladi.*

***Abstract:** This article talks about the use of modern media in tourism and its importance, which has already gained its place in the organization of the tourism industry. It also provides information about how tourist organizations use many sites.*

***Kalit so'z:** DEL TAMATIC, Delta, Pan am, American Airlines, Amadeus, Booking.com, Expedia, Hotels.com, turistik destinatsiyaga.*

***Key words:** DEL TAMATIC, Delta, Pan am, American Airlines, Amadeus, Booking.com, Expedia, Hotels.com, to the tourist destination.*

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev nutqlarining birida shunday degan edi "Bilimli avlod buyuk kelajakning, tadbirkor xalq farovon hayotning, do'stona hamkorlik esa taraqqiyotning kafolatidir". Albatta millat obro'si tarixdan ma'lumki o'zga xalqlar bilan qanchalik yaxshi kelishgani ular bilan yaxshi

qo'shnihilik munosabatlarini yo'lga qo'ya olganliklari bilan bog'liq edi.

Zamonaviy axborot vositalarini turizmدا qo'llanilishi hozirgi kunda ko'plab uchratish mumkin ayniqsa mehmonxona, muzeylar, parklar va transport vositalari uchun oldindan bronlash butun dunyoda keng amalda qo'llanilib kelinmoqda. Taxminiy hisoblar shuni ko'rsatadiki sayyohlarning 36 million nafari tashrif buyuradigan joylariga bir kun odin buyurtmalarini amalga oshirishar ekan har kun hisobida. Bronlashtirishning hozirgi zamon kompyuter tizimi – KSB (computer reservation system) ga XX asrning 50- yillar ohirida asos solingan. Dastlabki tizmlar kuchsiz bo'lganliklari uchun o'tgan asrning 60-yillarida muvaffaqiyatsizlikka uchragan bo'lsa, DEL TAMATIC, Delta, Pan am, American Airlineslar yuqori raqobatdsh bronlash tizimlari yaratadilar.

Yana bir mashhur sayitlardan biri “Amadeus” bo'ldi. U Amerikada, Afrika shuningdek osiyoda eng mustahkam o'rinni egalladi. Hozirda bu saytda 11 mingdan ortiqroq turagentliklar faoliyat ko'rsatmoqda. Tizimni boshqarish stab-kvartirasi Madridda(Ispanya) joylashgan. Bu saytdan foydalanuvchi turagentlikka kelmasdan turib xizmatlarning barcha turlarini xarid qilishlari mumkin. Bularga transport vositalari, joylashtirish muassasalari, avia biletlar va boshqa chiptalar. Qo'shimcha qilib aytadigan bo'lsak “Amadeus” bir qancha saylar bilan ishlaydi(Thiso, Wicom kabi).

Ko'plab mamlakatlar o'zlariga kelayotgan sayyohlara qulayliklar yaratish uchun o'zlarining rasmiy saytlarini ishlab chiqishgan(Uzbekistan hotels.uz kabi). Booking.com sayiti mehmonxonalarini bronlash bo'yicha ancha mashhur saytlardan biridir. Booking.com — 1996-yilda Amsterdamda (Niderlandiya) tashkil etilgan onlayn mehmonxona buyurtma berish tizimi. Birgiba 2013-yil 3-iyul holatiga ko'ra, Booking.com saytida 184 mamlakatda 320 000 dan ortiq mehmonxonalar mavjud edi. Ularning sayt versiyalari 40 dan ortiq davlatda, shu jumladan Rossiyada ham mavjud edi. Ammo Rossiya 2022-yil bu saytdan chiqarilib tashlandi.

Onlayn mehmonxonalarini bron qilish kompaniyalari o'rtasidagi raqobat kuchaygani sari, sayohatchilar uchun mavjud imkoniyatlar diversifikatsiya qilinmoqda. Ushbu variantlarga "Booking.com", "Expedia", "Hotels.com", "Agoda"

va boshqalar kabi mashhur saytlar kiradi. Shu bilan birga ushbu saytlar xonalar buyurtma qilish uchun eng yaxshi saytlardir.

Muzeylarni esa “musement.com” kabi yoki mamlakatning nomlari qo‘shib yoziladigan saytlar orqali topish mumkin(italy-museum.com).

“Rentalcars.com” kabi saytlardan avtomabillarni ijaraga olish mumkin.

Turistik tshkilotlar viza ishlarini yengillashtitishda zamonaviy web saytlaridan foydalanishadi huddi chet el elchixonalarini kabi. Agar ular viza uchun ma’lumotlarni qayta ishlaydigan saytlardan foydalanishsa fuqarolar viz uchun navbat olish handa hujjatlar topshirish uchun foydalanishadi.

Xulosa qilib aytganda zamonaviy axborot vositalari turizm iqtisodiyotida juda muhim. Birgina sayyohlarni turistik destinatsiyaga taklif qilish uchun marketing tadqiqotlari hamda reklama vositalaridan faydalanish kerak. Saytlar ahamiyati shu darajagacha yetdiki endi odamlarning ishonchli ma’lumotlar bilan birgalikga firibgar saytlar ham faoliyat yuritmoqda. Bugungi axborot asrida zamonaviy saytlardan foydalanish har bir jamiyat uchun muhimdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YHATI

1. Rahimov Zafar Odilovich.TURIZMDA TADBIRKORLIK/ o‘quv qo‘llanma. Samarqand-2019.
2. https://kitob.sies.uz/frontend/web/kitob/kitob_00600805f61a985.pdf
3. <https://uz.wikipedia.org/wiki/Booking.com>